



TYUTORLARNI IJTIMOIIY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASHDA AN'ANAVIY VA INNOVATSION MODELLAR

Kulniyazov T. U.

*pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
Qoraqalpoq davlat universiteti*

Tayanch sózlar: Ijtimoiy-pedagogik faoliyat, menejer, innovatsion model, elektron tyutor, avtomatik tyutor.

Ключевые слова: социально-педагогическая деятельность, менеджер, инновационная модель, электрон тьютор, автотьютор.

Key words: Socio-pedagogical activity, manager, innovative model, e-tutoring, autotutoring.

РЕЗЮМЕ:

Maqolada oliy ta'lim muassasalarida faoliyat yurituvchi tyutorlarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashda an'anaviy va innovatsion modellari ochib berilgan.

РЕЗЮМЕ:

В статье раскрываются традиционные и инновационные модели подготовки тьюторов к социально-педагогической деятельности в высших учебных учреждениях.

SUMMARY:

This article reveals traditional and innovative models of training tutors for social and pedagogical activities in higher educational institutions.

Oliy ta'lim muassasalarida tyutorlik faoliyatining mavjud tizimi hozirgi vaqtda me'yoriy hujjatlarda belgilab berilgan talablarni qanoatlantirmaydi, chunki ko'pchilik hollarda ayrim umumpedagogik majburiyatlarning bajarilishi bilan cheklanadi va ko'pincha talabalar guruhlarda ijtimoiy-pedagogik faoliyatni tashkil etish bo'yicha intuitiv taqdim qilish va sog'lom fikr asosida qaror qabul qilish talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olmasdan bajariladi. Ko'rinib turibdiki, tyutorlarning amaliy faoliyatini optimallashtirish va takomillashtirish jarayoni bu – pedagogik boshqaruv tizimining sifatini oshirishga, barcha ta'lim muhitini uyg'unlashtirishga olib keladigan tashkiliy o'zgarishlar tizimi hisoblanadi.

Yu.K.Babanskiy ushbu jarayonlarni "Optimallashtirish va takomillashtirish faoliyat metodologiyasi, dialektik tizimli-faoliyat yondashuvi, boshqarish



nazariyasi va mehnatni ilmiy tashkil etish, tizimlarning umumiy nazariyasi, pedagogik jarayonning umumiy qonuniyatlarining birligi sifatida” ta’kidlaydi [1; 256-b.]. Bizning fikrimizga ko’ra, oliy ta’limning tashkiliy faoliyati sharoitlarida demokratik va insoniylik tarbiya tizimi, ochiq tarbiya muhiti sifatida mumkin bo’lib, unda yangi kasbiy, tarbiyalangan, madaniyatli va vatanparvar shaxs shakllanadi.

F.F.Korolyov fikriga ko’ra, “... kelajak rivojlanish jarayonlarini optimal boshqarish g’oyalari faoliyatning barcha sohalari uchun xos bo’lib, shu jumladan pedagogikada boshqaruvchi bo’ladi [4; 9-b.]”. Shunday qilib, ijtimoiy-pedagogik faoliyatni optimallashtirish, aslida, o’zini tahlilchi sifatida o’z ichiga olgan ijodiy jarayondir (retrospektiv, optimallashtirish jarayonining genezisi, erishilgan ijobiy effektlar tahlili ushbu jarayonning bilimlar va munosabatlarning nisbiy yakunlangan xususiyatlari sifatida; real hayotiy vaziyatlar, muammolar, tarbiya tizimining imkoniyatlarini, uning o’zgarish qobiliyatini tahlil qilish; amaldagi tashkiliy madaniyatni tahlil qilish) va ushbu jarayonni amalga oshirish strategiyasi va taktikasi yaratish, pedagogik muammolarni bartaraf etishni, tyutorlarning amaliy faoliyatini qamrab olgan.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, tyutorlik faoliyati oliy ta’lim muassasalaridagi zamonaviy sharoitlarda o’zaro muloqotlar va ijtimoiy munosabatlar sohasida milliy qadriyatlarni shakllantirish, ijtimoiy bilim va ko’nikmalarni o’zlashtirish, amaliy qobiliyatlarni shakllantirish orqali ijtimoiylashuv jarayonini optimallashtirishni ta’minlovchi insonparvarlik, shaxsga yo’naltirilgan muhitni tashkil etish muammolarini hal etadi [3; 171-175-b.]. Bunda esa o’quv yurtida shaxslararo muloqotlarni umumiy insoniylik bilan ruhiy-axloqiy qadriyatlarining faollashishini ta’minlaydigan seminarlar tashkil qilish ahamiyat kasb etadi. Bu esa, samarali ta’lim-tarbiya dasturida mavjud ko’p qirrali va o’qishdan tashqari faoliyat sohasini optimallashtirishga nisbatan yo’naltirishga asos bo’ladi [2; 33-36-b.].

Ma’lum bo’lishicha, tyutorning kasbiy roli individual, shaxsiy, xususiy sifatlarining qorishmasidan iborat bo’lib, ularning adekvatligi kasbiy majburiyatlarini samarali amalga oshirishni taqozo etadi va tyutorning rolini bajarishga ta’sir qiladi. Tyutorlar bunda talabalarning madaniy o’sishi jarayoniga, har xil vaziyatlarda ma’lum tajribasini shakllantirishga maqsadli ta’sir ko’rsatadi. Ammo tyutorning ishlarini faqat axborot beruvchi va nazorat sifatida bir tomonlama tushunmaslik kerak.

Biz yuqorida ta’kidlaganimizdek, tyutorning funksiyalari ko’p, u eng avvalo ustoz, zamonaviy ma’noda – menejer, ya’ni u boshqa insonlarning resurslari va potensialini aniq maqsadlarda erishish uchun qo’llanuvchi inson.

Shuningdek, tyutorlarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonida tyutorlikning an'anaviy va innovatsion modellari internatsionallashuv darajasini ta'minlashga alohida e'tibor qaratildi. Tyutorlikning an'anaviy modellariga quyidagilar kiritildi:

– **“tyutor – informator”** – talabalarga zarur axborotlarni o'z vaqtida yetkazib berishni asosiy vazifasi deb hisoblaydi. U talabalarni mustaqil bo'lishini hisobga olib, talabalar guruhi turmushiga kirib borishni lozim deb hisoblamaydi;

– **“tyutor – tashkilotchi”** – talabalar guruhi faoliyatini o'quv mashg'ulotlaridan tashqari tadbirlar (kechalar, teatrlarga borishlar va boshq.) yordamida mazmunli tashkil qilish lozim, deb hisoblaydi U o'z majburiyatlariga guruh sardorlarini saylashni ham qamrab oladi, guruhdagi shaxslararo nizolarning yuzaga kelishida mas'uliyatini sezadi va ularni hal qilishga intiladi.

– **“tyutor – psixoterapevt”** – talabalarning shaxsiy muammolari haqida o'ylab qayg'uradi, ularning mulohazalarini eshitishga tayyor, ularga o'z maslahatlari bilan yordam berishga intiladi. Tyutor o'zining shaxsiy vaqtini talabalarni psixologik qo'llab-quvvatlashga sarflaydi, ular bilan yaqin munosabatlarni yo'lga qo'yadi va hissiy charchoqlarga qaramay kun davomida talabalarning muammolarini hal etish bilan shug'ullanadi;

– **“tyutor – ota-ona”** – ta'lim-tarbiya jarayonida talabalarga nisbatan ota-onasidek munosabatda bo'lish rolini qabul qiladi, ularni nazorat qiladi va ko'pchilik holatda talabalarning tashabbuskorligini chegaralab qo'yadi. Talabalarning shaxsiy va oilaviy ishlarini psixologik qo'llab-quvvatlash nuqtai nazaridan emas, aksincha, nazorat qilish, uning qaroriga to'liq rioya etishni talab qiluvchi ota-ona sifatida amalga oshiradi. Bu insonlar ko'pincha katta yoshdagilar bo'lib, ular o'zlarining hayot tajribalariga tayanib ish yuritadi.

– **“tyutor – do'st”** – talabalar guruhi hayoti bilan yaqindan qiziqadi, u guruhning ko'pchilik tadbirlarida ishtirok qilishga intiladi. Talabalar tyutorni guruh a'zosi sifatida qabul qiladi, ammo ko'p hollarda zarur vaziyatlarda talab qilish uchun zarurli masofani saqlash xislati yetishmaydi. Ko'p hollarda bunday tyutorlarning rolini yosh o'qituvchilar yoki doktorantlar bajaradi;

– **“tyutor – beg'am talaba”** – qaysi bir majburiyatlarni bajarishni zarur deb hisoblamaydi, o'z vazifalarining doirasini ochiq-oydin tasavvur qilmaydi. U rasman tyutor deb sanaladi, ko'pincha talabalar guruhining nimaligini ham tasavvur qilmaydi;

– **“tyutor – rahbariyat”** – talabalarning mashg'ulotlarni qoldirishlari haqida rahbariyatni xabardor qilishni o'zining asosiy vazifasi deb biladi, ularning o'z vaqtida qatnashishni nazorat qiladi. Asosan nazoratchi vazifasini bajaradi,



ammo tyutor ota-onadan farqli tomoni, buni rasmiyatchilik jihatdan bajaradi hamda talabalar guruhining manfaatlariga shaxsiy qiziqishi va aralashishi kuchli bo'lmaydi.

Har bir toifaning ustunlik jihatlarining mavjudligi tyutorning barcha zarurli funksiyalarning oqilona amalga oshirishni inkor qilib, bittasini kuchaytiradi. Bundan tashqari “psixoterapevt” va “ota-onalar” talabalarning shaxsiy hayotlariga aralashadi, bu esa aslida mumkin emas va ular tomonidan tyutorga nisbatan qarshilik ko'rsatishini yuzaga chiqaradi. “Beg'am talaba” boshqalarning tyutor – bu “hech kim emas” va uni qaysi bir majburiyatga kiritishning zaruriyati yo'q, degan fikrlarini mustahkamlaydi.

Bugungi kunda zamonaviy tyutorlarning o'z faoliyatiga mas'uliyati sezilarli darajada kengayib, Yevropa ta'lim tizimida mavjud tyutorlik faoliyatning bir nechta turlarini ko'rib chiqildi va tyutorlikning innovatsion modellariga quyidagilar kiritildi:

telefon/e-mail tyutor – bunday holatda tyutor telefon va elektron pochta orqali talabalar bilan aloqada bo'lishi zarur. Agar talabalarda qandaydir tushunmagan savollar tug'ilgan taqdirda, ularga zarur ma'lumotlarni aloqa vositalari yordamida yetkazib berishga harakat qiladi;

elektron tyutor (e-tyutoring) – tyutor va talaba orasidagi masofa va internetdan foydalanish jihatidan farqlanadi. Buni zamonaviy onlayn texnologiyalardan sezilarli darajada foydalanishni o'z ichiga olgan o'quv dasturlarida talabalarni o'qitish, qo'llab-quvvatlash, boshqarish va erishgan yutuqlarini baholash sifatida qarash mumkin;

avtomatik tyutor (autotyutoring) – kompyuter tyutori talabalar bilan interfaol muloqot qilish orqali fan va texnologiyaga oid atamalarni o'rganishga yordam beradi. Talabalar savollarni klaviatura yoki ovoz yordamida kiritadilar, avtotyutor esa gapiradigan, yuz ifodalari va hatto imo-ishoralarni o'zgartiradigan jonlantirilgan “yordamchi” sifatida tasvirlanadi.

Tyutorlik faoliyatining yuqorida keltirilgan modellari zamonaviy xorij pedagogikasida talabalarning individual ta'lim traektoriyalarini shakllantirish va rivojlantirish masalalarida juda dolzarb hisoblanadi.

Tyutorlik ishlarini takomillashtirish samaradorligining garovi oliy ta'lim muassasalari rahbariyatiga e'tibor qaratishidir, u bugungi kunda ushbu faoliyat turiga tyutorlarning rasman majburiyatlari, deb qaraladi. Bizning nazarimizda, tyutorlarni ham o'qituvchilarning, ham yuqori kurs talabalarining umumiy sonidan, ularni tyutorlar bo'yicha rahbariyat choralari bilan samarali o'qitish va ularning ijtimoiy-pedagogik faoliyatini nazorat qilish mexanizmlari bilan

tanlab olish mexanizmiga keskin zaruriyat bugungi kunda mavjud. Buning uchun vijdonan mehnatga tyutorlarning qiziqishlarini ta'minlash zarur.

Tyutorlarning faoliyati kasbiy pedagogik faoliyat sifatida maqsadli va motivatsion xususiyatlariga ega bo'ladi. Bunda "tyutorlik faoliyatining jazibadorligi alohida imkoniyatlarning inson hayot kechirishining ustun motivlariga mos kelishi bilan tavsiflanadi" [5; 262-b.]. Tyutori motivatsiyalashning xilma-xilligi bois, faoliyat jozibadorligi ularning tarbiya jarayoniga va talabalar bilan olib boriladigan tarbiya ishlariga bog'liq boshqada turlariga jalb qilish vositasining ko'p xilligiga bog'liq bo'ladi.

Bularning barchasi oliy ta'lim muassasalarida tyutorning amaliy faoliyatini optimallashtirish va takomillashtirishning rivojlanish istiqbollari, ta'limning zamonaviy sifatiga erishishda uni yanada modernizatsiyalash bo'yicha ijobiy prognozlash uchun asos bo'ladi. Bu esa, tyutorlar faoliyatining zamonaviy shakllarini qidirishni nazarda tutadi. Tyutorlarning ijtimoiy-pedagogik faoliyatini takomillashtirishning muhim mezoni sifatida talabalar muhitini uyg'unlashtirish jarayonida milliy qadriyatlar va an'analarni saqlagan holda ilmiy asoslangan yagona tashkiliy-metodik ta'minotni ishlab chiqishni taqozo etadi.

Adabiyotlar:

1. Бабанский Ю.К. Оптимизация процесса обучения. Общедидактический аспект. – М.: Педагогика. 1977. – 256 с.
2. Бейлина Н.С. Куратор студенческой группы как субъект воспитательной деятельности вуза. // Балтийский гуманитарный журнал. 2015. №2 (11). – С. 33-36.
3. Буянова Г.В. К вопросу об исторических предпосылках создания института кураторства в вузе. // Балтийский гуманитарный журнал. 2018. Т. 7, №3(24). – С. 171-175.
4. Королёв Ф.Ф. Системный подход и возможности его применения в педагогических исследованиях. // Структурно-системное исследование педагогических явлений и процессов. – М.: НИИ общей педагогики. 1970. – С 9-11.
5. Сериков Г.Н. Управление достижением качества образования. – Челябинск. Изд. центр «Уральская академия», 2009. – 262 с.